

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISH KOMPETENSIYANI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Komilov J.K., GDPI, p.f.n., professor, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor,
Isayeva G.P., GDPI, p.f.n., professor.
E-mail: guli66@gmail.com

Annotasiya: mazkur bitiruv ishida “Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish” modullini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirishning nazariy masalalari, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanilgan holda tayyorlangan ishlanmalar, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishga imkon beradigan nostandart o'quv va test topshiriqlari mujassamlashtirgan.

Kalit so'zi; bo'lajak, o'qituvchi, kasbiy mahorat, kompetensiya, innovatsion texnologiya, interaktiv, metod, nostandart, o'quv, test.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Farmoni bilan ishlab chiqilishi nazarda tutilgan Konsepsiyada Respublikamizda oliy ta'limda tashkil etiladigan ta'lim- tarbiya jarayonini innovatsion yondashuv va zamonaviy texnologiyalar asosida loyihalashtirish, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich **kredit-modul tizimiga** o'tkazish, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan **amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga** yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini **sifat jihatidan yangi bosqichga** ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan **yuqori kopetentsiyaga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini** yo'lga qo'yish kabi muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Bugungi kunda respublikamiz oliy ta'lim tizimida innovatsion yondashuv va zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya oladigan iste'dodli yoshlar o'sib, ulg'ayib, Vatanimiz taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishi aniq. Modomiki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yosh avlodga tayanar ekanmiz, avvalambor, ta'lim sohasiga bir tomonlama qarashdan xalos bo'lishimiz lozim.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirini belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan kasb sifatlar xususida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida bayon qilishgan. Yuksak pedagogik kasb mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga insbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha

ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Buyuk islohotlarni amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy o'zining mustaqil dunyoqarashiga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham mustaqil ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o'zgarlar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir. Ta'limdagi yangilanish yangicha bilim berish orqali jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o'zgartirishni ham ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston-30» strategiyasi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda inson erkin, mustaqil va sog'lom ijodiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash zarur.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev mazkur muammoning mohiyatiga alohida e'tibor qaratib shunday degan edi: «Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!» degan edilar.

Talabalarni ijodiy fikrlashga, erkin tafakkur yuritishga imkon bermaydigan sabablardan biri talabalar faqat darslik, qo'llanmalar va professor-o'qituvchi tomonidan dars jarayonida beriladigan ma'lumotlarga tayanishi, mustaqil ishlarini bajarishlaridir. Talabalarga professor-o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablar, ko'p hollarda ijodiy fikr yuritish ehtiyojini tug'dirmaydi. Talabaning ijodiy fikrlashidan qanoatlanilmasa uning shaxdini bo'g'ib, boshqacha usulda mushog'ada qilishga majburlashning foydadan ko'ra zarari ko'proq. Mazkur maqsadga erishishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga oid Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli farmoni bo'yicha taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqilishi, ayniqsa, ta'lim sohasini davlat siyosatida ustuvor o'rin tutish bilan birga keng jamoatchilik ishtirokini ham talab qilishi alohida ahamiyat kasb etadi⁵⁰. O'zbekiston Respublikasi Prezident Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarni tiklash haqidagi mulohazalarida ta'lim-tarbiya masalalarini faollikka asoslangan tamoyillarga tayanib tashkil etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqlol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish haqida gap boradi⁵¹.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha professor-o'qituvchilarning yanada o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berishi bilan bir qatorda, oliy ta'lim sohasida o'qitish jarayonini takomillashtirish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash kabi vazifalarni qo'yilmoqda. Bitiruv malakaviy ishi bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat,

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga oid Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

⁵¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qiramiz”. Toshkent-O'zbekiston"-2017.

ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik, tarbiyachilik kasbiy mahoratining sirlarini toptishdan iboratdir. Talabalar o'qish va o'qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko'nikma va malakalar, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o'zlashtirish malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratadilar.

“Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish” modullini o'qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga kreativev va innovatsion yondoshuvlarga, so'nggi ilmiy yangiliklarga e'tiborni kuchaytirish hozirgi kunning dolzarb muammosi sifatida tan olinmoqda.

Hozirgi sharoitda jamiyatning bolajak o'qituvchilik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormokda. Uning oldiga qo'yadigan talablar quyidagilardan iborat:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muxabbati;

- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, maktab gigiyenasidan o'z kasbiga doir bilimlarga mukammal bilishi;
- o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, kompyuter, axborot, raqamli texnologiyalari yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;
- ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;
- o'z kasbiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

- pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish.

- ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi.
- kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishi,

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib kolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon o'qituvchisi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi.